



## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS- NAZORAT TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI VA SAMARADORLIGI MUAMMOLARI

**Sobirov Xasanjon**

*Qo'qon davlat universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlarni  
 o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) yo'nalishi 1-  
 bosqich magistranti*

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida joriy etilgan korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat tizimining huquqiy asoslari tahlil qilinadi hamda uning xalqaro miqyosdagi "muvofiglik" (compliance) tushunchasiga nisbatan tabiati o'rganiladi. Muallif komplayens-nazorat O'zbekistonda asosan ma'muriy-nazorat paradigmasida, qonunosti hujjatlari darajasida tatbiq etilgani va bu hol uning profilaktik, xavf-xatarga asoslangan mohiyatidan chetga chiqishiga olib kelayotganini asoslaydi. Ishda tizimning institutsional qaramligi, formal xususiyati, akademik halollik o'lchovining e'tibordan chetda qolishi kabi samaradorlik muammolari ko'rsatib o'tilib, tavsiyalar jumladan qonunchilikka kiritiladigan loyiha normalar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** komplayens-nazorat, korrupsiyaga qarshi kurashish, oliy ta'lim, akademik halollik, manfaatlar to'qnashuvi

Korrupsiya oliy ta'lim sohasida nafaqat byudjet mablag'larini o'zlashtirish yoki pora kabi an'anaviy ko'rinishlarda, balki qabul jarayonlaridagi imtiyozlar, baholashdagi g'ayriqonuniy ta'sir, ilmiy ish va dissertatsiyalardagi halollik buzilishi hamda mansab mavqeyini suiiste'mol qilish shaklida ham namoyon bo'ladi. Ushbu sohada korrupsiya alohida xavfli, chunki u nafaqat aniq bir muassasaga, balki butun bir avlodning bilimi, mehnat bozoridagi adolat va davlatga bo'lgan ishonchga zarar yetkazadi. O'zbekistonda 2017-yilda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun<sup>1</sup> qabul qilinishi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining tegishli konvensiyasi<sup>2</sup> talablarining milliy qonunchilikka singdirilishi bilan sohaviy islohotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Transparency International ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatning Korrupsiyani idrok etish indeksidagi o'rni so'nggi yillarda sezilarli yaxshilangan bo'lsa-da, ko'rsatkich hamon yuqori korrupsiya darajasini aks ettiruvchi chegaradan past.<sup>3</sup> Bu holat ta'lim kabi yuqori xavfli sohalarda tizimli profilaktik mexanizmlarga bo'lgan ehtiyojni yanada ta'kidlaydi.

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'RQ-419-sonli Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2025-y., 03/25/1038/0188-son

<sup>2</sup>Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) // O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2008-y., 3-4-son

<sup>3</sup>Transparency International. Corruption Perceptions Index 2024 // <https://www.transparency.org/en/cpi/2024/index/uzb>

Xorijiy ilmiy adabiyotda oliy ta'limdagi korrupsiya yaxlit hodisa sifatida o'rganiladi. M. Kirya universitetlardagi korrupsiyaning qabuldagi xolislik buzilishidan tortib mablag'larni o'zlashtirish va akademik halollik buzilishigacha bo'lgan keng spektrini ta'riflar ekan, antikorrupsion muvofiqlik (compliance) va halollik me'yorlarini akkreditatsiya hamda baholash standartlariga singdirishni asosiy yechim sifatida ilgari suradi.<sup>4</sup> E. Denisova-Schmidt esa ta'limning ommaviylashuvi, xususiylashuvi va tijoratlashuvi etika masalalarini birinchi o'ringa olib chiqayotganini, ayniqsa postsovet makonidagi tizimlarda akademik halollik muammosi institutsional islohotlarni talab etishini ko'rsatadi.<sup>5</sup> Mazkur yondashuvlar fonida O'zbekistonda tanlangan asosiy institutsional vosita komplayens-nazorat tizimi alohida ilmiy e'tiborga loyiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi Farmoni bilan barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplayens-nazorat") ni bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi<sup>6</sup>. Shu asosda davlat muassasasi maqomidagi oliy ta'lim muassasalarida ham tegishli bo'limlar tashkil etildi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi komplayens-nazoratning huquqiy asoslari bir necha bosqichli hujjatlar majmuasidan iborat. Uning umumiy negizini "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun tashkil etadi. Aynan shu hujjatda "korrupsiya", "korrupsiyaga oid huquqbuzarlik" va "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchalari qonuniy ta'rif oladi. Tizimning bevosita asosi sifatida 2020-yilgi Farmon barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etishni, shuningdek E-Anticor elektron platformasi va xabar berish mexanizmlarini yo'lga qo'yishni belgiladi. Xuddi shu kuni qabul qilingan qaror bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tuzilmasi tasdiqlanib, soha bo'yicha yagona vakolatli organ shakllantirildi.<sup>7</sup> Oliy ta'lim sohasiga xos jihatlar esa Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida shaffoflik, xolislik va korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etish talablari shaklida<sup>8</sup> hamda vazirlikning keyingi buyruqlari va "Korrupsiyasiz soha" loyihasida o'z ifodasini topdi.<sup>9</sup> Amalda har bir oliy ta'lim muassasasida "komplayens-nazorat tizimini boshqarish bo'limi" tashkil etilib, u markaziy apparat tarkibiga kiritildi.

<sup>4</sup>Kirya M. Corruption in universities: Paths to integrity in the higher education subsector. – Bergen: U4 Anti-Corruption Resource Centre, Chr. Michelsen Institute, U4 Issue 2019:10. // <https://www.u4.no/publications/corruption-in-universities-paths-to-integrity-in-the-higher-education-subsector>

<sup>5</sup>Denisova-Schmidt E. The Challenges of Academic Integrity in Higher Education: Current Trends and Prospects. – Boston: CIHE Perspectives No. 5, Boston College Center for International Higher Education, 2017. // [https://www.researchgate.net/publication/317933042\\_The\\_Challenges\\_of\\_Academic\\_Integrity\\_in\\_Higher\\_Education\\_Current\\_Trends\\_and\\_Prospects](https://www.researchgate.net/publication/317933042_The_Challenges_of_Academic_Integrity_in_Higher_Education_Current_Trends_and_Prospects)

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni.// <https://lex.uz/docs/-4875784>

<sup>7</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-sonli qarori bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tuzilmasi tasdiqlangan. // <https://lex.uz/docs/-4875782>

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4545884>

<sup>9</sup>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi "Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to'g'risida"gi 369-sonli buyrug'i. // <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2024/10/369-sonli-buyruq.pdf>

Tizimning mazmuniy tabiatini baholash uchun muvofiqlikning xalqaro tushunchasini eslash zarur. Compliance institutsi tarixan AQSHning Foreign Corrupt Practices Act (1977) va Buyuk Britaniyaning Bribery Act (2010) kabi qonunlari ta'sirida shakllangan<sup>10</sup> hamda ISO 37001 xalqaro standartida yaxlit boshqaruv tizimi sifatida umumlashtirilgan. Ushbu standart muvofiqlikni xavf-xatarga mutanosib (risk-based), yuqori rahbariyat sodiqligiga tayanuvchi, mustaqil muvofiqlik funksiyasiga ega, kontragentlarni tekshirish (due diligence), xabar berish va uzluksiz takomillashtirish mexanizmlarini o'z ichiga olgan profilaktik model sifatida belgilaydi.<sup>11</sup> Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining rasmiy talqini ham komplayens-nazoratni xalqaro standartlarga muvofiq, xavf-xatar va manfaatlar to'qnashuvini aniqlovchi profilaktik tizim sifatida ta'riflaydi. Ya'ni huquqiy ta'rif darajasida milliy model xalqaro tushuncha bilan uyg'un ko'rinadi.

Aynan shu nuqtada ilmiy polemika boshlanadi. Xalqaro doktrinada muvofiqlik tashkilotning ichki avtonomiyasi va xavf-xatarni boshqarish madaniyatiga asoslangan boshqaruv tizimi bo'lsa, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida u markaziy apparatga kiritilgan, bir vaqtning o'zida rektorga bo'ysunadigan va vazirlikning tegishli bo'limiga hisobot beradigan ma'muriy nazorat bo'linmasi shaklida tatbiq etildi. Bunda institutning shakli (compliance) qabul qilingani holda, uning mazmuni mustaqillik va xavf-xatarni boshqarish mantiqi to'liq o'zlashtirilmadi. Hatto atamaning o'zida ham "komplayens" so'zi "nazorat" bilan qo'shib qo'llanishi semantik jihatdan nazorat-jazo o'lchovini muvofiqlik-profilaktika o'lchovidan ustun qo'yadi.

Yuqorida belgilangan tushunchaviy nomutanosiblik amaliyotda bir qator samaradorlik muammolarini keltirib chiqaradi. Birinchi va eng tub muammo institutsional qaramlik hamda manfaatlar to'qnashuvidir. Komplayens bo'limi o'zi nazorat qilishi lozim bo'lgan boshqaruvning bevosita tarkibiy qismi bo'lib, rektorga bo'ysunadi, vazirlikka hisobot berish esa ikki tomonlama bo'ysunishni yuzaga keltirsa-da, haqiqiy mustaqillikni ta'minlamaydi. ISO 37001 talab etadigan, boshqaruv organiga bevosita chiqish huquqiga ega mustaqil muvofiqlik funksiyasi milliy modelda strukturaviy jihatdan mavjud emas. Nazoratchining nazorat ostidagi shaxsga tashkiliy va xizmat jihatidan tobeligi tizimning ishonchliligini tubdan cheklaydi.

Ikkinchi muammo funksiyalarning profilaktikadan jazo-nazorat tomon siljishi. Amaldagi namunaviy nizomlarda bo'limning vazifalari ko'proq xizmat tekshiruvlari reestrini yuritish, murojaatlarni ko'rib chiqish va intizomiy choralar bilan bog'liq bo'lib, xavf-xatar madaniyatini shakllantirish hamda akademik halollikni mustahkamlash ikkinchi darajaga tushib qoladi. Holbuki muvofiqlikning mohiyati huquqbuzarlikni sodir bo'lganidan keyin qayd etish emas, balki uni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni oldindan bartaraf etishdir.

Uchinchi muammo xavf-xatarga asoslangan metodologiyaning amalda formal qo'llanishi. Tarkibi, hajmi va korrupsion xavf-xatarlari tubdan farq qiluvchi oliy ta'lim muassasalarida bir xil namunaviy nizom va shablon hujjatlar joriy etiladi. Vaholanki, qabul, baholash, dissertatsiya himoyasi, davlat xaridlari, yotoqxon taqsimoti va ilmiy grantlar kabi yo'nalishlar har bir muassasada o'ziga xos xavf-xatar xaritasini talab

<sup>10</sup> Bribery Act 2010, UK Public General Acts // <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2010/23/contents>

<sup>11</sup>ISO 37001:2016. Anti-bribery management systems – Requirements with guidance for use. – Geneva: International Organization for Standardization, 2016.

etadi. Yagona qolip bo'yicha ish yuritish xavf baholashni mazmunan emas, balki shaklan amalga oshishiga olib keladi.

To'rtinchi muammo akademik halollik o'lchovining tizimdan tashqarida qolishi. Xorijiy adabiyot va akademik halollik xartiyalari plagiat, imtihon firibgarligi, ilmiy ishlarni boshqalarga yozdirish va akademik mavqeni suiiste'mol qilishni oliy ta'limdagi korrupsiyaning markaziy ko'rinishi sifatida talqin qiladi. Qatar universiteti tajribasida ko'rsatilganidek, akademik halollik xalqaro akkreditatsiya va sifat kafolati standartlarining ajralmas qismiga aylantiriladi.<sup>12</sup> O'zbekiston modelida esa korrupsiya asosan ma'muriy-moliyaviy huquqbuzarlik sifatida tushunilib, akademik halollik buzilishi komplayens bo'limining aniq vakolat doirasidan tashqaridagi "kulrang hudud"da qolmoqda.

Beshinchi muammo kadrlar malakasi va sertifikatlash standartining yo'qligi. Amaliyotda komplayens bo'limlari ko'pincha yuridik yoki muvofiqlik bo'yicha ixtisoslashmagan, boshqa sohalardan kelgan xodimlar tomonidan boshqariladi. ISO 37001 talab etadigan kasbiy malaka va uzluksiz o'qitish mexanizmi milliy darajada majburiy standart sifatida belgilanmagan.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalaridagi korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat tizimi huquqiy jihatdan asoslangan bo'lsa-da, u, asosan, qonunosti hujjatlari darajasidagi ma'muriy-nazorat paradigmasida shakllangan va shu sababli muvofiqlikning xalqaro tushunchasidan uning avtonom, xavf-xatarga asoslangan va halollik madaniyatiga yo'naltirilgan mohiyatidan chetga chiqadi. Tizim samaradorligi institutsional qaramlik, formalizm, nazorat-jazo og'ishi hamda akademik halollik o'lchovining e'tibordan chetda qolishi bilan cheklanadi.

Avvalo, komplayens-nazoratning huquqiy maqomini qonun darajasiga ko'tarish maqsadga muvofiq. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga<sup>13</sup> oliy ta'lim muassasasida korrupsiyaga qarshi muvofiqlikni shunchaki ma'muriy nazorat emas, balki avtonom, xavf-xatarga asoslangan halollik funksiyasi sifatida belgilovchi alohida norma kiritilishi lozim. Taklif etilayotgan loyiha norma quyidagicha ifodalanishi mumkin: *"Oliy ta'lim muassasasi korrupsiyaga qarshi muvofiqlik (komplayens) funksiyasini mustaqil tashkiliy birlik shaklida tashkil etadi. Mazkur funksiya xavf-xatarni baholashga asoslanadi, akademik halollikni ta'minlashni o'z ichiga oladi hamda muassasa kengashi va vakolatli organ oldida hisobot beradi."*

Ikkinchidan, Strukturaviy mustaqillikni ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega. Bunda muvofiqlik (compliance) bo'yicha mas'ul shaxs bevosita ta'lim muassasasi kengashi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hisobdor bo'lishi lozim. Uning faqat rektorga tobe bo'lmasligi nazorat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga xizmat qiladi. Uchinchidan, har bir muassasa uchun individual korrupsion xavf-xarita ishlab chiqishni majburiy uslubiy talab sifatida belgilash lozim. To'rtinchidan, muvofiqlik funksiyasi vakolatiga plagiat, imtihon va ilmiy halollik buzilishini ham aniq kiritish hamda uni akademik halollik normalari bilan bog'lash maqsadga muvofiq.

<sup>12</sup>Helo S.A. Combating Academic Corruption and Enhancing Academic Integrity through International Accreditation Standards: The Model of Qatar University // Journal of Academic Ethics. – 2021. – Springer. doi:10.1007/s10805-021-09392-7.

<sup>13</sup>O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. – <https://lex.uz/docs/5013009>

Nihoyat, samaradorlikni baholash mezonlarini “faollik” ko‘rsatkichlaridan (ishonch telefoniga kelgan murojaatlar yoki o‘tkazilgan tekshiruvlar soni) “natija” va “halollik” ko‘rsatkichlariga ko‘chirish lozim. Komplayens-nazorat oliy ta’limda haqiqiy ma’noda ishlashi uchun u nazorat apparatining bir bo‘g‘ini emas, balki muassasaning halollik madaniyatini shakllantiruvchi avtonom institutga aylanishi shart. Aks holda muvofiqlik shaklan mavjud, mazmunan esa samarasiz bo‘lib qolaveradi bu esa islohotlarning eng nozik sinovidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi O‘RQ-419-sonli Qonuni.// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.02.2025-y., 03/25/1038/0188-son

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) // O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to‘plami, 2008-y., 3-4-son

3. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2024 // <https://www.transparency.org/en/cpi/2024/index/uzb>

4. Kirya M. Corruption in universities: Paths to integrity in the higher education subsector. – Bergen: U4 Anti-Corruption Resource Centre, Chr. Michelsen Institute, U4 Issue 2019:10. // <https://www.u4.no/publications/corruption-in-universities-paths-to-integrity-in-the-higher-education-subsector>

5. Denisova-Schmidt E. The Challenges of Academic Integrity in Higher Education: Current Trends and Prospects. – Boston: CIHE Perspectives No. 5, Boston College Center for International Higher Education, 2017. // [https://www.researchgate.net/publication/317933042\\_The\\_Challenges\\_of\\_Academic\\_Integrity\\_in\\_Higher\\_Education\\_Current\\_Trends\\_and\\_Prospects](https://www.researchgate.net/publication/317933042_The_Challenges_of_Academic_Integrity_in_Higher_Education_Current_Trends_and_Prospects)

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni.// <https://lex.uz/docs/-4875784>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-sonli qarori bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tuzilmasi tasdiqlangan. // <https://lex.uz/docs/-4875782>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4545884>

9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi “Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi 369-sonli buyrug‘i. // <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2024/10/369-sonli-buyruq.pdf>

10. Bribery Act 2010, UK Public General Acts // <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2010/23/contents>

11. ISO 37001:2016. Anti-bribery management systems – Requirements with guidance for use. – Geneva: International Organization for Standardization, 2016.

**12.** Helo S.A. Combating Academic Corruption and Enhancing Academic Integrity through International Accreditation Standards: The Model of Qatar University // Journal of Academic Ethics. – 2021. – Springer. doi:10.1007/s10805-021-09392-7.

**13.** O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. – <https://lex.uz/docs/5013009>